

QO'Y VA ECHKILARNING EKTOPARAZITLARI VA ULARGA QARSHI DORI VOSITALARINI SINOVDAN O'TKAZISH

Jabborov G'. G', Rayimqulov I. X.

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

Summary: Pathogens, epizootological data, course and symptoms of sheep psoroptosis are given in the article. And also provides the results of the use of an antiparasitic drug - ivermectin - 10 with sheep psoroptosis.

Kalit so'zlar: Ektoparazitlar, kanalar, qo'ylar, echkilar, psoroptidlar, ivermektin, spontan, inyeksiya.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 16-fevraldagi chorvachilik tarmog'ini qo'llab-quvvatlash, sohada ilg'or texnologiyalarni keng qo'llash orqali go'sht, sut va tuxum ishlab chiqarish hajmini oshirish yuzasidan yig'ilishi o'tkazdi. Unda aholini uy hayvonlari bilan ta'minlash masalasiga ham to'xtalib o'tildi. Yig'ilishda o'n kun muddatda kooperatsiya asosida aholiga 350 ming bosh qo'y va echkini tarqatish ishlarini boshlashga topshiriq berilgan. Bunga davlat tomonidan 100 million dollar yo'naltiriladi. Soha mutasaddilariga viloyat va tuman hokimlari bilan birga bir hafta muddatda 67 ta yirik qo'y va echkichilik xo'jaliklarini tashkil etish ishlarini boshlash vazifasi qo'yilgan. Viloyat hokimlari 2022-yilda qorako'lichilik, qo'ychilik, echkichilik va jun sanoatini rivojlantirish hisobiga 150 ming aholi bandligini ta'minlashi shartligi ko'rsatib o'tildi. Yil yakuniga qadar 123 ta yirik loyihani ishga tushirish, har bir klasterda kamida 500 boshli chorva komplekslari tashkil etilish choralari belgilab olindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 martdagi "Chorvachilikda iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-2841-sonli, 2018 yil 14 martdagi "Qorako'lichilikni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3603-sonli, 2019 yil 16 avgustdagi "Qorako'lichilik tarmog'ini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4420-sonli qarorlari va "Veterinariya va chorvachilik sohasida Davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2019 yil 28 martdagi PF-5696-sonli Farmoni hamda Qarorlari soxani jadal rivojlantirish uchun joriy etildi.

Mavzuning dolzarbligi. Respublikamizda chorva hayvonlarini ektoparazitlar bilan zararlanishini kamaytirish, ularni davolash, oldini olish va qarshi kurashishga qaratilgan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ushbu zararkunandalarni chorva mollarining tanasida ektoparazitlik qilishi hamda turli xildagi yuqumli va invazion kasalliklar zararlanishi oqibatida yirik va mayda shoxli hayvonlarning rivojlanishdan orqada qolishi, mahsuldorligining keskin kamayishi va og'ir kasallanish natijasida majburan so'yilishi va nobud bo'lish holatlarini oldi olinmoqda.

Mamlakatimizda qorako'l zotli qo'ylar bosh soni va qorako'lichilik mahsuloti va xomashyolari ishlab chiqarish hajmlarini yanada oshirish, naslchilik ishlarini ilmiy asosda takomillashtirish, qorako'lichilik mahsulotlari va xom ashyolarni chuqur qayta ishlash ushbu soha mutaxassislarining asosiy maqsadi hisoblanadi. Qo'ychilik va echkichilik serdaromad sohalardan biri bo'lib, sohani yanada rivojlantirish, qo'y va echkilar bosh sonini ko'paytirish, naslini yaxshilash va mahsuldorligini oshirishga bir qator salbiy etiologik omillar ta'sir qiladi. Jumladan, qo'ylarning hamda echkilarning ektoparazitlar bilan zararlanishi oqibatida ularning



go'sht va jun mahsuldorligi 10-30 % kamayib ketishi hamda ikkilamchi infeksiya va invazyialarning rivojlanishiga sharoit yaratilishi mumkin.

O'tgan davr mobaynida qorako'l zotli qo'ylarning bosh soni qariyb 2 baravarga ko'payib, sohada olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida qorako'l qo'ylarining nasli yaxshilandi va cho'l ozuqabop ekinlarining yangi navlari yaratildi.

So'nggi yillarda ayrim parazitlar kasalliklar, xususan ektoparazitlar qorako'lchilik sohasining jadal rivojlanishiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Chorva mollarida parazitlik qiluvchi ektoparazitlarning ko'p turlari mavjud bo'lib, ular orasida kanalar og'ir asoratli kasalliklarni sodir etadi.

Kanalar - Acari (Acarida) – 10.000 dan ortiq turga ega. Turli xil sharoitda yashashga moslashgan: tuproqda, o'simlik, hayvon va inson organizmida, Psoroptidae oilasiga mansub *Psoroptid-psoroptes* avlodi kanalari teri ustida yashab, terida yo'l hosil qilmaydi, balki terini teshib xo'jayin qoni bilan oziqlanadi. Bu kanalarning *P.ovis* turi qo'ylarda va echkilarda ko'p tarqalgan bo'lib xo'jalikka katta zarar yetkazadi.

Teri usti kanalar ko'pincha jun qatlami qalin va namligi yuqori bo'lgan terida parazitlik qiladi organizmning rezistentlik darajasi pasaygan qo'ylarda kasallik og'ir ko'rinishda kechadi. Terixo'r kanalarni rivojlanishi, ko'payishi uchun optimal sharoitda yilning sovuq davrida yaratiladi.

Kanalar bilan birinchi zararlangan tana sohasi - bu hayvon tanasining ikki yonlari hayvon tanasi bo'ylab kana harakatlanganida, ular o'zlarining so'rg'ichlari orqali teri retseptorlarini yallig'laydi, teri qichishi yuzaga kelishi natijasida qo'zilar hamda uloqlar tishlari bilan zararlangan joylarni jarohatlaydilar, natijada yara hosil bo'lib, teri so'lak bilan namlanadi. Bu esa kanalarni ko'payishi uchun birlamchi psoroptozli manbaga qulay sharoit tug'diradi.

Kanalarni so'lagi orqali yaralarga tushgan toksinlar oqibatida teri yallig'lanadi, uning yuzasiga limfa to'planadi, vaqt o'tishi bilan quyuqlashadi va o'lgan epidermis hujayralari bilan birgalikda po'stloqqa aylanadi. Ularga yiringli mikroblar tushib rivojlanadi, kana va ularning chiqindilari terining yallig'lanish jarayonini chuqurlashtiradi va bu organizmning umumiy holatiga ta'sir ko'rsatadi.

Lizis oqibatida nobud bo'lgan hujayralar va modda almashinuvidagi mahsulotlarini, mikroblarning chiqarayotgan toksinlari organizmga so'rilishi natijasida eozinofiliya va boshqa gemodinamik jarayon rivojlanadi. Qo'y va echkilar organizmi rezistentligini oshirish omillari kuchayganida, masalan, yozda junlar olinganida, psoroptozli jarayon pasayadi va surunkali oqimga o'tib oladi.

Parazitlik qiluvchi kanalar o'zlarining organizmida ayrim juda xavfli yuqumli va parazitlar kasalliklarning qo'zg'atuvchilarini olib yuradi. Sog'lom odam va hayvonlarning qonini so'rish paytida kasallikni yuqtiradi.

Tadqiqotning maqsadi. Qorako'lchilik xo'jaliklarida ko'p uchraydigan va soha rivojiga jiddiy zarar keltiradigan ektoparazitlarga qarshi kurashish hamda hayvonlar organizmi uchun bezarar bo'lgan yangi vositalarni qo'llash usullarini takomillashtirish.

Tadqiqot ob'ekti va usullari sifatida Samarqand viloyati Nurobod tumanidagi "Qorako'l zamini" otarlarida boqilayotgan qorako'l zotiga mansub qo'y, qo'zi va echkilarda bajarildi. Buning uchun spontan kasallangan qo'y, qo'zi va echkilarda sinovdan o'tkazildi.

Tajribalar uchun *Psoroptid-psoroptes* kanalari bilan zararlangan 16 bosh qorako'l qo'ylari hamda 14 bosh echkilar ajratib, 50 kg gacha tirik vazniga 1 ml ivermektin₁₀ preparati davolovchi



dozada chot qismiga teri ostiga ineksiya qilindi. Kasallik og'ir kechgan qorako'l qo'ylarda esa 8-10 kun oralig'ida ikkinchi marotaba qo'llanildi.

Ivermektin₁₀ preparatining 1 ml tarkibi:

Preparatning 1 millilitrli tarkibida 10 mg faol ivermektin moddasi va 40 milligram Ye vitamini mavjud. Eritma *Streptomyces* (Lotin *Streptomyces avermitilis*) ning bakterial fermentatsiyalash yo'li bilan olinadi. Ivermektin₁₀ preparati "O'zbiokombinat" qo'shma korxonasi AJ mahsuloti.

Preparatning yordamchi komponentlari: fenilkarbinol, politilen oksidi 400, in'ektsiya uchun suv, novokain, metilkarbinoldan iborat.

Ivermektin₁₀ Gamma-aminomoy kislotasining tormozlash neyromediatorini ishlab chiqarishni kuchaytiradi, bu parazitlarning nerv impulsini uzatilishi buzilishiga, falajiga va o'limiga olib keladi. Hayvonlarning a'zolari va to'qimalarida 10-14 kun davomida parazitni qiruvchi ta'siri saqlanadi. Tavsiya etilgan dozalarda kam zaharli. Ivermektin₁₀ organizmdan o't suyuqligi, siydik va sut bilan chiqadi. "Ivermektin₁₀" yirik shoxli hayvonlar, qo'ylar, echkilar, cho'chqalar, otlar, itlar, mushuklarning ichki organlarni gelmint (gijja-lichinka) lariga va terisidagi parazitlariga (qichima, qo'tir, kanalariga) qarshi kurashishda hamda davolash uchun ishlatiladi. Hayvonlarning teri ostiga, 50 kg tana vazniga 1 ml. (1 kg tana vazniga 0,2mg) bir marotaba. Mayda hayvonlarga aniq doza berish uchun yetarli doza olinib steril suv bilan suyultirish mumkin. Og'ir kasallik holatida ishlov berish ikki marotaba 8-10 kun oralig'i bilan qo'llaniladi.

Preparatning organizmdan chiqib ketish vaqti. Go'sht uchun - 21 kun, Sut uchun - 7 kun.

Tadqiqotlar natijalari. *Psoroptid-psoroptes* kanallari bilan zararlangan qorako'l qo'ylari va echkilar otardan alohida ajratib olindi va zararlangan qo'y, qo'zi va echkilarga 1 ml ivermektin preparati davolovchi dozada teri ostiga ineksiya qilindi. Preparat qon tarkibiga to'liq o'tgandan 3-4 kun o'tib kanallarning o'lib, qo'ylarning hamda echkilarning junlarini ustiga chiqib qolish holatlari kuzatildi.

Kasallik og'ir kechgan imuniteti past oganizmda modda almashinuvi jarayoni buzilgan to'yimsiz, sifatsiz ozuqalar bilan oziqlantirilgan qo'y va echkilarda esa kanallarning o'lishi biroz sust bo'lganligi sababli 8-10 kun oralig'ida ikkinchi marotaba preparat 2 ml kuchaytirilgan dozada qo'llanildi.

Xulosalar

1. Ivermektin₁₀ preparatini qo'y va echkilarga qo'llash natijasida *Psoroptid-psoroptes* kanallarining qo'zg'atuvchilariga qarshi kurashishda samara beradi. Belgilangan dozalarda qo'llanilganda organizmga salbiy toksik ta'sirini namoyon etmaydi.
2. Preparat oshqozon-ichak tizimi va o'pka nematodalari, teri osti, burun-halqum va oshqozon bo'kalarining lichinkalari, qon so'ruvchi bitlar va sarkoptoid kanallarning lichinka va voyaga yetgan bosqichlariga kuchli parazitlarga qarshi ta'sir ko'rsatadi.
3. Yilning mavsumiga tashqi muhitning haroratiga bog'lik holda ektoparazitlar bilan kasallangan qo'y va echkilarni quruq va ho'l usuldan foydalanib davolash hamda ektoparazitlar bilan zararlanishni oldini olish samara beradi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. A.U.Mirzaeva // Janubiy O'zbekiston sharoitida argasidae kanallari parazitlar tizimining shakllanish xususiyatlari. Dissertatsiya avtoreferati. Toshkent – 2018



2. B.Sayidqulov va boshqalar / veterinariya mutaxassisleri uchun qisqacha ma'lumotnoma. Toshkent 2015-y 241-248 b.
3. Б.М.Багамаев, А.А.Водянов, В.А.Оробец / Профилактика и меры борь-бы с псороптозом овец. Рекомендации для практических врачей и работников овцеводства. – Ставрополь: Респект, 2010. – 48 с.
4. Б.М.Багамаев, Ф.И.Василевич, А.А.Водянов, В.М.Оробец / Саркоптои-дозы. – Ставрополь: Респект, 2010. – 64 с.
5. D.T.Isakova, e.B.SHakarboev. // Parazitologiya. Toshkent-2004. 159-164 b.)
6. S. Dadaev / Parazitologiya. Toshkent – 2004. 109-112 b.
7. 7.S.I.Mavlonov va boshqalar. // Qo'ylar ektoparazitlari. Veterinariya meditsinasi jurnali 2021-y. №1. 22-24 b.
8. S.I.Mavlanov // Qishloq xo'jaligi hayvonlarini ektoparazitlardan himoya qilishning yangi usullarini yaratish. Dissertatsiya. Samarqand – 2016
9. P.S.Haqberdiev, SH.X.Qurbonov / Parazitologiya fanidan amaliy laboratoriya mashg'ulotlari. Toshkent. 2015-y. 166-171 b.
10. T.Abdurahmonov va boshqalar / Veterinariya parazitologiyasi. Toshkent-2005-y. 176-177 b.
11. G'.G'.Jabborov // Veterinariya va chorvachilik sohasidagi yutuqlari. 2021:-103-105 b.
12. Sh.R.Xolov, S.I.Mavlanov // Qo'ylar ektoparazitlari. Veterinariya meditsinasi jurnali. 2021-y. №11. 24-25b.
13. M.Y.Rahimov., F.S.Po'latov. // Ektoparazitlarga qarshi "Deltametrin" ning samaradorligi. Veterinariya meditsinasi jurnali 2020-y. №6. 27-28 b.
14. Khasanovich, N. D., & Bakhodirovich, Y. J. DIAGNOSTICS AND SOME FEATURES OF DEMODECOSIS IN DOGS OF THE SAMARKAND REGION. SCIENCE EDUCATION PRACTICE, 126.
15. Elmuradovich A. O. BACTERIAL DAMAGE TO CARCASSES AND INTERNAL ORGANS IN CATTLE ECHINOCOCCOSIS //Archive of Conferences. – 2022. – С. 15-18.
16. Курбанов Ш. Х., Салимов Б. О распространении кишечных цестод овец в условиях Узбекистана //Global Science and Innovations: Central Asia. – 2019. – Т. 2. – С. 32-35.
17. Бойсинова Н. Б., Ачилов О. Э., Исхакова М. Обеспечение безопасности говядины в условиях продовольственного рынка Самарканда. – Бойсинова, НБ Обеспечение безопасности говядины в условиях продовольственного рынка Самарканда/НБ Бойсинова, ОЭ Ачилов, М. Исхакова//Ветеринарная медицина в XXI веке: роль биотехнологий и цифровых технологий: материалы Международной научно-практической конференции студентов, магистрантов и молодых ученых (г. Витебск, г. Самарканд, 2 февраля 2021 г.)/Витебская государственная академия ветеринарной медицины, Самаркандский институт ветеринарной медицины.-Витебск: ВГАВМ, 2021.-С. 194-197., 2021.

